

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)  
**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

***№ 4 (5) – 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

#### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich*

TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN

OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR ..... 12-17

*Qurbonov Xurshid Raupovich*

O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN

"MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI ..... 18-22

*Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li*

O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI ..... 23-28

*Abbasov Behzod Baxtiyorovich*

FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIIY

MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI

(1946-1965)..... 29-35

*Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR ..... 36-39

*Tursunova Gavhar Begmuradovna*

ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN

MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI

(XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) ..... 40-50

*Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li*

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH

XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI ..... 51-54

*Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi*

O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR

(1991-2024 yy)..... 55-59

*Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich*

QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK

TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI ..... 60-64

*Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna*

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING

AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI

(QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)..... 65-69

*Mardiyeva Guzal Karimovna*

XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI

ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNINI ..... 70-75

*Narziyev Rustambek Xaydarovich*

HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN

YARATILGAN IMKONIYATLAR ..... 76-80

|                                                                                                                                      |       |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i><br>XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING<br>IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI ..... | 81-87 |
| <i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i><br>O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA<br>IPAKCHILIKNING O'RNI .....          | 88-92 |
| <i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i><br>O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI .....                    | 93-99 |

#### **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

|                                                                                                                                                                                                                  |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i><br>BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI<br>RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI .....                                                  | 100-116 |
| <i>Юлдашева Надира Викторовна</i><br>«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:<br>ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....                                                                      | 117-123 |
| <i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i><br>ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....                                                                                                    | 124-128 |
| <i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i><br>TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI<br>FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH .....                                                                | 129-135 |
| <i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i><br>SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI<br>VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....                                                                                        | 136-145 |
| <i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i><br>XORIJIY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA<br>KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI<br>(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA) ..... | 146-159 |
| <i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i><br>O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA<br>INSON KAPITALINING TA'SIRI .....                                                                                 | 160-164 |
| <i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i><br>“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH ....                                                                                           | 165-169 |

#### **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

|                                                                                                                               |         |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Komilov Ro'zi Rabiyeovich</i><br>OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY<br>OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI ..... | 170-172 |
| <i>Хакимов Эркин</i><br>ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ<br>МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ .....           | 173-180 |
| <i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i><br>SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....                                                | 181-185 |
| <i>Karimov Yo'ldosh Ergashevich</i><br>TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI .....                | 186-191 |

|                                                                                                                                                         |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Azzamxodjaeva Shaxnoza Saiddmatmabovna</i><br>О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ<br>СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ)..... | 192-195 |
| <i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i><br>ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....                                              | 197-204 |
| <i>Evatov Salimjon</i><br>MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI:<br>IX-XII ASRLAR MEROSI .....                                                     | 205-209 |
| <i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i><br>ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI .....                                                         | 210-213 |
| <i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i><br>IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI<br>OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI .....          | 214-217 |
| <i>Kunisheva Nadira Julanovna</i><br>"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING<br>ILMIY-NAZARIY MASALALARI .....                          | 218-223 |
| <i>Eshpulatov Inoyat</i><br>FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT<br>VA MA'NAVIY MUHIT .....                                          | 224-231 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                    |         |
| <i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i><br>O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY<br>SHAKLLANISHI .....                                       | 232-236 |
| <i>Алиева Эльвина Аметовна</i><br>ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ<br>С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ .....        | 237-243 |
| <i>Usmanova Sevara</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY<br>HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....                                                 | 244-251 |
| <i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i><br>MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI .....                                                       | 252-260 |
| <i>Daminova Rahima Malikovna</i><br>ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....                                                                            | 261-266 |
| <i>Yusupov Asror</i><br>PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK<br>BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV .....                      | 267-271 |
| <i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i><br>VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR<br>TADQIQOTLARI .....                                        | 272-276 |
| <i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i><br>COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....                                            | 277-281 |
| <i>Sirojiddinova Shakhribonu</i><br>THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....                                                         | 282-285 |

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Xodjiev Yunus Muxitdinovich*

DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR  
TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 286-292

*Wang Cong*

RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION ..... 293-300

*Лу Адук*

К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ  
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ..... 301-310

*Abdurashidova Zarina Turg'un qizi*

FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING  
NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI ..... 311-315

*Axmatov Olimjon Odilovich*

“KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF  
RAVISHDA Olish, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY  
XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI Olishda SUN'IY INTELLEKTNING  
O'RNI” ..... 316-322

*Xatamov To'liqin Tojiddinovich*

KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI  
TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING  
NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI ..... 323-329

*Kuchimova Shaxlo*

VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI ..... 330-337

*O'rinova Dilshoda Adhamovna*

OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI  
HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDAGI AYOLLAR JABRLANISHINI  
OLDINI Olish BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI ..... 338-347

*Geng Zhimin*

RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT..... 348-351

*Xidirov Mexroj Qilich o'g'li*

ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK  
JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON  
BERUVCHI OMILLAR ..... 352-357

*Тулаганов Элмурод*

ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ  
ТРАНСФОРМАЦИИ ..... 358-367

*Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon*

DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI  
SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI ..... 368-374

*Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li*

JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING  
IJTIMOIY XAVFLILIGI ..... 375-382

|                                                                                                                                                                                          |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i><br>DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI,<br>AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR .....                                       | 383-392 |
| <i>Kamilov Oybek</i><br>O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR<br>VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....                           | 393-402 |
| <i>Абборова Камола Саидмухторовна</i><br>ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА<br>ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И<br>ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ .....       | 403-410 |
| <i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i><br>RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID<br>DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) .....                        | 411-418 |
| <i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i><br>"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELEKTNI INTEGRATSIYA<br>QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI" .....                                  | 419-427 |
| <i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i><br>INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR .....                                                                              | 428-432 |
| <i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i><br>VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH<br>BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK<br>ASOSLARI ..... | 433-441 |
| <i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i><br>KONTRAFKAT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA<br>INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY<br>JIHATLARI .....                  | 442-448 |
| <i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i><br>YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOY-IQTISODIY FAOLIYATIGA<br>TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI .....          | 449-457 |
| <i>Mansurov Arslon Askarovich</i><br>"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI<br>HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI .....                   | 458-463 |

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

|                                                                                                                                                                                                        |         |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i><br>"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY<br>MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI .....                                                | 464-470 |
| <i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i><br>EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM<br>MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR .....                        | 471-475 |
| <i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i><br>BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI<br>LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION<br>YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR ..... | 476-481 |

|                                                                                                                                                                                                       |         |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i><br>ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY<br>TUZILISHI.....                                                                                | 482-485 |
| <i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i><br>FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYYATI .....                                                                                                          | 486-491 |
| <i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i><br>TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK<br>MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM<br>MENEJMENTINING O'RNI ..... | 492-496 |
| <i>Раббимова Нодира Таштемировна</i><br>ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ<br>ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ .....                                                              | 497-501 |

**Received:** 16 March 2025

**Accepted:** 5 April 2025

**Published:** 15 April 2025

*Article / Original Paper*

## **SCIENTIFIC-THEORETICAL ISSUES OF RESEARCHING THE CONCEPT OF "SOCIAL TOLERANCE"**

**Kunisheva Nadira Julanovna**

Senior teacher

Angren University

"Humanitarian va social Fans" Chair

**Abstract.** Social Squirrelly Concept review at Idle Scientific-theoretical in matters Squirrelly balance sheet Related topics review at Idle Interfaith, specific in cases that Interethnic relationships Issues ko'proq E'tibor Focus shows. But society only Nationalities Yoki from From Fields consists of gold, in it Solidarity, peace va Sustainability asrash va reinforcement Since many Factors va to the facades E'tibor Give request does.

**Keywords:** social tolerance, tolerance, "Avesta", Farabi, Mazdakism, harmony, peace, justice.

## **"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI**

**Kunisheva Nadira Julanovna**

katta o'qituvchi

Angren universiteti

"Gumanitar va ijtimoiy fanlar" kafedrası

E-mail: [nadirakunisheva@mail.ru](mailto:nadirakunisheva@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ijtimoiy bag'rikenglik tushunchasini tadqiq etishda ilmiy-nazariy masalalarida bag'rikenglik bilan bog'liq mavzularni tadqiq etishda konfessiyalararo, muayyan hollarda esa millatlararo munosabatlar masalalariga ko'proq e'tibor qaratilganligini ko'rsatmoqda. Lekin jamiyat faqat millatlar yoki din sohalaridangina iborat emas, undagi hamjihatlik, tinchlik va barqarorlikni asrash va mustahkamlash yana ko'plab omillar va jabhalarga e'tibor berishni talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy bag'rikenglik, bag'rikenglik, "Avesto", Forobiy, Mazdakiylik, hamjihatlik, tinchlik, adolatparvarlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N34>

**Kirish.** Hozirgi zamonda mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy integratsiyalashuvi natijasida **ijtimoiy bag'rikenglik**, ya'ni, insonning ijtimoiy mavqeyi, e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar unga teng munosabatda bo'lish kabi qadriyatlar inqirozi kuchayib bormoqda. Mazkur masalalarning dolzarbligi hozirgi kunda yanada oshib borayotganligini nazarda tutib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh.Mirziyoyev** "... bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda" [1;30-31 -b], deb ta'kidlaydi.

Davlat, ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolar darajasida bag'rikenglikni rivojlantirish butun jahon hamjamiyatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Uni hal qilish tegishli huquqiy va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni, maxsus ijtimoiy, ta'lim, ta'lim dasturlarini amalga oshirishni, bag'rikenglik qadriyatlarini tasdiqlashga, shuningdek, fuqarolarning bag'rikenglik ongini va bag'rikenglik xulq-atvorini rivojlantirish muammolari bo'yicha fanlararo ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga hissa qo'shadi.

**Hozirgi zamonda ayniqsa ijtimoiy bag'rikenglik tamoyili insonparvarlik va ijtimoiy-madaniy muvozanatni ta'minlovchi, inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini kafolatlovchi, inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini kafolatlovchi, ijtimoiy tuzilmalar va individual xulq-atvorni boshqaruvchi va tartibga soluvchisi kuchga aylanishi kerak.**

Zero, **shaxsning o'zligini namoyon etish jarayoni ko'p jihatdan ijtimoiylashuv orqali sodir bo'ladi.** Shuning uchun ijtimoiy bag'rikenglik shaxs va jamiyat, ya'ni turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni nazarda tutadi. Bu o'zaro ta'sir o'z xatti-harakatlarini boshqalarning xatti-harakatlari bilan bog'lashni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy bag'rikenglik axloq va huquq nuqtai nazaridan shaxsning ijtimoiy guruh a'zolari uchun ijtimoiy javobgarligida amalga oshiriladi. Bunday bag'rikenglik nafaqat shaxs oldidagi, balki ijtimoiy guruhlar oldidagi ijtimoiy huquqlarni o'z qadriyat yo'nalishlari bilan tan oladigan yetuk shaxsgagina xosdir[2;600-b].

Shu jihatdan ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mazkur tushunchani konkret ijtimoiy makon va tarixiy zamon xususiyatlari bilan bog'lab falsafiy tahlil qilishning dolzarbligini ko'rsatmoqda. Shu boisdan ham mazkur bobda O'zbekiston fuqarolarida ijtimoiy bag'rikenglik tuyg'usini shakllantirish va mustahkamlash jarayoni va unga ta'sir qilishiga doir tarixiy yondashuvlar, xorijiy va milliy tajriba, nazariy-metodologik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Bu borada mavzuning qadimgi davrdan hozirgacha **"bag'rikenglik"** tushunchasiga berilgan turli tavsiflar va ta'riflar, mazkur tushunchaning mazmun-mohiyati va namoyon bo'lish xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish ehtiyoji mavjud. Shu bilan birga, ijtimoiy bag'rikenglikning jamiyatimiz hayoti va taraqqiyotidagi o'rni, uni tashkil etgan sub'ektlar faoliyatiga ta'siri masalalarini qiyosiy o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mamlakatimizning mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan taraqqiyot modeli, u bilan bog'liq tub o'zgarishlarning ahamiyati masalasi milliy omillarning mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Bag'rikenglik g'oyasining mazmuni, mohiyati, xususiyatlari va namoyon bo'lish shakllarini o'rganish faylasuflar, tarixchilar, siyosatshunoslar, psixologlar va boshqa ko'plab soha tadqiqotchilarining diqqatini tortib kelgan. Ularda ko'proq bu tushunchaning ijtimoiy-siyosiy hamda tarixiy tahliliga, uning milliy mentalitet, diniy qarashlar, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat sohasi bilan o'zaro bog'liqligiga e'tibor berilgan. Ayni chog'da, **ilmiy so'z-atamalarning ma'nosini beruvchi ba'zi lug'atlarda bag'rikenglik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:**

**Bag'rikenglik** – masalaga keng ko'lamda, ochiq ko'ngillik bilan yondashish.

**Bag'rikenglik** – a) yot odamning turmush tarzi, xulqi, urf-odati, hissiyoti, fikri, g'oyasi, e'tiqodiga toqat bilan yondashuv; b) begona va yot omillarni sezmay qolish natijasida sodir bo'lgan hodisalarga bag'rikenglik bilan yondashuv; v) nomaqbul hissiy omillar ta'siriga ham sabr-chidam bilan qarash [2, 600-b].

**Bag'rikenglik (tolerantlik)** – o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g'amxo'r, saxiy, keng fe'lli bo'lgan, ana shunday ma'naviy fazilatlariga ega kishilarni ifodalovchi tushuncha bo'lib, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana-marosimlariga hurmat-ehtiromda bo'lish, muomala-munosabatda kamsitish va tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla-ko'ya bunga rioya etishni anglatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, **"bag'rikenglik"** tushunchasining mohiyati turli tillardagi **semantik** farqlar bilan tavsiflanadi. **Ingliz** tilida bag'rikenglik inson yoki g'oyani noroziliksiz qabul qilishga tayyorlik qobiliyati tushuniladi. **Fransuz** tilida – o'zganing erkinligini, uning fikrlash tarzini, siyosiy yoki diniy qarashlarini hurmat qilishni, **ispan** tilida esa, boshqa odamlarning fikrlari yoki g'oyalari tushunish qobiliyati bildiradi. **Arab** tilida boshqa odamlarga nisbatan kechirimlilik, ehtiromli, muloyim, rahm-shafqatli, iltifotli, sabr-toqatli bo'lishni va **xitoy** tilida bag'rikenglik boshqalarga nisbatan saxovatli bo'lishni anglatadi.

**Muhokama.** Qayd etish lozimki, mamlakatimizda bag'rikenglik tushunchasiga oid fikrlar garchand olis o'tmishdan boshlangan bo'lsa-da, ammo bu masalaga oid nazariy manbalar va ilmiy qarashlar rivoji, maxsus tadqiqotlar doirasida, puxta o'rganilmagan.

Masalan, miloddan oldingi **VI** asrda yuzaga kelgan, dunyodagi eng qadimiy va noyob bilimlar xazinasi bo'lgan **"Avesto"**da jamiyat taraqqiyoti, rivoji uchun zarur barcha ilmlar majmuasi, qonun-qoidalar, axloqiy-ijtimoiy me'yorlar o'z aksini topgan.[3,35-36-b]

"O'rnatilgan qonun-qoidalar, hayotning asosiy yo'li" ma'nosini anglatadigan "Avesto"da azal azaldan insonlar ittifoqda yashash, bir-birlariga xayrixoh bo'lish, turmush sharoitini yaxshilash, munosib hayot kechirish asosida barqarorlikni qaror toptirish haqida orzu qilib kelganligi aks etgan. Mazkur tarixiy obidada, Axuramazda odamlarni bir birlari bilan murosalar qilib yashashni odat qilishlari, g'arazgo'ylik, hasadparstlik qonunsiz ishlardan o'zlarini tiyib yurishlariga chorlaydi. Unda johillik, zo'ravonlik, tuhmat kabi yomon xislatlar qoralangan.

Avesto"da bag'rikenglik madaniyati o'z mohiyatiga ko'ra o'zaro hurmat va ehtirom g'oyasiga asoslanadi. Mazkur paradigma "Avesto"da lo'nda ifodalangan: **"Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal"**[3,35-36-b]

Xalqimiz tarixining qadimgi davrlarida mazkur mavzuga oid falsafiy qarashlar xalq og'zaki ijodi, turli rivoyatlar va afsonalarda bayon qilingan. Masalan, ming yil avval yaralgan **"Alpomish"** epik dostonida hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib o'zligini yo'qotmagan xalqimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan"[4,83-b].

**Natijalar.** Muammoning o'rganilganlik darajasi nuqtai nazaridan ta'kidlash joizki, ijtimoiy bag'rikenglikning jamiyat rivojida o'rni, kishilarning hayoti uchun ahamiyati qadim zamonlardan oq anglab yetilgan. Bu borada muqaddas kitobimiz bo'lgan **"Qur'on"** va hadislarda **"Tavrot"**, **"Injil"**, **"Veda"**larda insonning ma'naviy yuksalishi va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida bag'rikenglik g'oyalari xam e'tirof etilgan.

Turli diniy ta'limotlarning asosini tashkil qilgan mazkur manbalar kishilarni bag'rikenglik fazilatini o'zlashtirishga, ya'ni o'zga shaxs, millat va dinlarga nisbatan hurmat nazari bilan qarash, mehr-muruvvat ko'rsatish, boshqalarning o'zidan kam emasligini tan olishga da'vat etadi.

Qadimgi zamon faylasuflarining ilmiy-nazariy asarlarida, ayniqsa o'rta asrlar hamda mumtoz falsafa namoyondalari bu masalaning jamiyat hayoti va insoniyat tafakkuridagi o'rniga

katta ahamiyat berganlar.[5,56-57-b]. Masalan, buyuk ajdodlarimiz **Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiylar** ham xalqimiz uchun bag'rikenglikning ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatib berganlar. Jumladan, "**Sharq Arastusi**" deb atalgan **Abu Nasr Forobiy** bag'rikenglikning asosini insoniylikda, deb biladi. Shuning uchun ham alloma "Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham, odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro hamkorlikda yashamoqlari lozim", deb yozadi.

**Abu Nasr Forobiyning** nazariy qarashlaridan yana biri shuki, u Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari faylasuflari orasida birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqidagi ilmiy ta'limotni ishlab chiqdi. Xususan Forobiy shunday deb yozadi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi.... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi".[5,134-b]

Abu Nasr Forobiy shahar-davlatlarni fozil va johilga ajratadi. **Fozil shahar** o'z xalqini baxt-saodatli qilishi, uning rahbari esa adolatli, yuksak axloqli va ma'rifatli bo'lishi lozim. Lekin, Forobiy ta'limotiga ko'ra, shunday shaharlar bo'ladi, ularning aholisi nafsga berilgan, butun fikri-zikri boylik to'plash bo'ladi. Forobiy bunday shaharlarni **johil shaharlar** deb ataydi. Johil shaharlarning boshliqlari ham faqat boylik to'plashga ruju qo'ygan bo'ladi. "Ulardan chiqqan rahbarlar ham, – deb ta'kidlaydi alloma, – rahbarlikni mol-dunyoni ko'paytirishda deb biladilar. Shuning uchun ham ular erta-yu kech mol-dunyo to'plash harakatida bo'ladi. Bunday rahbarlarning qo'l ostida bo'lgan shahar xalqlarida har turli buzuv odatlar, shahvoniy nafs, bir-birini ko'ra olmaslik, bir-birini talash, dushmanlik, nizo-janjallar paydo bo'ladi"[5,136-137-b]. Forobiyning fikricha, haqiqiy baxtga erishish uchun harakat qiluvchi, o'zaro yordam qiluvchi, xalqini birlashtirgan shahar – fozil shahar hisoblanadi. **Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergan va birlashgan kishilar fazilatli jamoa bo'ladi.**

Forobiy asarlarida **adolatparvarlik** masalasini batafsil talqin etilgan. Uning ta'limotiga ko'ra: "Adolatparvarlik eng avvalo shahar aholisining barchasiga tegishli bo'lgan xayrli narsalarning to'g'ri taqsimlanishida va shu taqsimlanganlarning boylikni to'la saqlanib qolishida ifodalanadi. Bu xayrli narsalar, boyliklar, salomatlik, hurmat, ehtirom, martabalar va shunga o'xshash narsalar bo'lib, bulardan har bir kishi o'ziga yarasha bo'lagini olishi kerak, bulardan ko'p yoki oz olish adolatsizlikdir. Agar oz tegsa u odamga nisbatan adolatsizlikdir, agar ko'p olsa, xalqqa, ya'ni boshqalarga nisbatan adolatsizlikdir".[5,115-b]

Alloma adolatparvarlikni mehribonlik bilan chambarchas holda talqin qiladi. "Adolatlilik ham mehribonlik bilan bog'liqdir, fazilatli shahardagi mehribonlik avvalo fazilatli ishlarda va fikrlarda ko'rinmog'i kerak", – deydi Forobiy.

**Mazdakiylik diniy-falsafiy ta'limotining asoschisi Mazdak ibn Hamdodon** o'zining qarashlarida ijtimoiy bag'rikenglik asosini kishilar o'rtasidagi tenglik tashkil etishini ta'kidlaydi. Uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, dunyoning barcha boyliklari odamlarga teng taqsimlanishi lozim. Ijtimoiy tengsizlik kishilar o'rtasida ziqnalik, o'g'rilik, yomonlik, makkorlik, shafqatsizlik, urushlar, turli-tuman falokat va baxtsizliklar kabi illatlarni keltirib chiqaradi. Shu boisdan bunday yovuzliklarni keltirib chiqaruvchi sababning o'zini tugatish kerak, deb hisoblaydi. Yaratgan hammaga mol-mulkni teng bo'lib bergan ammo boylar barcha boylikni

o'ziniki qilib olish yo'liga o'tgan, kambag'allar ham mol-mulkka egalik qilish huquqiga ega shuning uchun boy-badavlat kishilar mol-mulkning qismini ular o'rtasida taqsimlab berish odilona ish bo'ladi, degan nazariy g'oyani ilgari surgan

**Abu Rayhon Beruniy** (973-1048) esa, o'z falsafiy asarlarida jamiyatni boshqarish "idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining fikrlariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishdan iboratdir", [6,23-b] deb ta'kidlaydi. Faylasufning "**Qadimdan qolgan yodgorliklar**" asarida adolatli va bag'rikeng jamiyatda kishilarning samarali mehnatiga, ilm sohiblariga, ularning aql-zakovatiga, fazilatli axloq-odobiga, hayotiy tajribasiga yuksak baho beriladi.

Beruniy jamiyatning shakllanishi muayyan darajada uning a'zolarining ehtiyojlari bilan bog'liq deb hisoblaydi. "Inson ehtiyojlari turli-tuman va son-sanoqsizdir. Faqat ularni bir qancha kishilar birgalikda ta'minlay olishlari mumkin" "Gap shundaki, odam ehtiyojining ko'pligi, tiyilishi kamligi, himoya qilish quroliga ega bo'lmaganligi va dushmanning ko'pligi tufayli, bir-birini himoya qilish zarurligi, o'zini va boshqalarni ta'min etishga zarur bo'lgan biror ishni bajarish uchun o'z qarindosh-urug'i bilan jamiyatda birlashishga majbur bo'lgan", degan xulosaga keladi.

**Al-Xorazmiy, Ulug'bek, At-Termiziy, Burxonuddin Marg'inoniy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshband** kabi zabardast allomalar, **Lutfiy, Yusuf Xos Xojib, Navoiy, Bobur, Bedil, Mashrab** kabi ulug' zotlar ham o'z falsafiy-didaktik asarlarida xalq orasidagi o'zaro hamkorlik, hamjihatlik va bag'rikenglikka tayanadigan taraqqiyot masalasiga alohida e'tibor qaratganlar.

Ulug' mutafakkirlarimizning bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan ta'limotlariga insoniyat bugungi kunda ham katta ehtiyoj sezayotganligini ta'kidlab, Prezident **Sh.Mirziyoyev** "Buyuk tarixda hech narsa izziz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir" deb qayd etadi.

Ijtimoiy bag'rikenglik muammosini ilmiy o'rganish G'arbda ham chuqur tarixiy ildizlarga ega. Aksariyat xorij olimlari va mutaxassislari o'z asar va tadqiqotlarini ijtimoiy bag'rikenglik va uni ta'minlash muammosini o'rganishga bag'ishlaganlar. Ular orasida Qadimgi Yunoniston mutafakkirlari **Solon, Sokrat, Platon, Aristotel, Diogen** va boshqalar alohida ajralib turadilar.

Ijtimoiy bag'rikenglikni "tartib-intizom" va "tinch-totuv hayotni ta'minlash" sifatida talqin qilgan faylasuf **Platonning** fikricha: "Osmon va yerni, ma'bud va insonlarni muloqot, do'stlik, vijdon, sabr-qanoat, adolat birlashtiradi. Shu sababli eng yaxshi holat – bu urush ham, ichki nizolar ham emas. Agar ularga muhtojlik sezilsa, bu dahshatdir. Tinchlik – bu o'zaro do'stlikdir". [7,341-b]

Ayniqsa, Platonning **o'zgalarga** toqat qilmaslikning ijtimoiy xavfi haqidagi fikrlari bag'rikenglikni muhim omili sifatida tavsiflash uchun yordam beradi: "Ikki zulmdan yomoni, bizning fikrimizcha, o'zgalarga toqat qilmaslikni uyushtirish, kamrog'i yomoni unga chidash. Insonga o'zgalarga toqat qilmaslikning oldini olish va uni boshdan kechirmaslik uchun qanday ishonchli himoya kerak? Unga iroda kerakmi yoki xohishmi? Agar inson adolatsizlikka duch

bo'lmalikni istasa, xohish yetarlimi yoki adolatsizlikdan qochmoq uchun kuch topish lozimmi? Tushunarli, kuch kerak ekan".[7,341-b]

**Xulosa.** Mavzuga aloqador ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, yurtimizda tub islohotlar amalga oshirilayotgan va yangilanishlar jarayoni izchil kechayotgan hozirgi davrda bag'rikenglik masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarning bahs mavzusiga aylangan. Bu boradagi ilmiy amaliyot mamlakatimiz olimlari tomonidan bag'rikenglik bilan bog'liq mavzularni tadqiq etishda konfessiyalararo, muayyan hollarda esa millatlararo munosabatlar masalalariga ko'proq e'tibor qaratilganligini ko'rsatmoqda. Lekin jamiyat faqat millatlar yoki din sohalaridangina iborat emas, undagi hamjihatlik, tinchlik va barqarorlikni asrash va mustahkamlash yana ko'plab omillar va jabhalarga e'tibor berishni talab qiladi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Shavkat Mirziyoev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir <https://president.uz/uz/lists/view/4089>
2. Islom Karimov. "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida so'zlangan nutq. -T.: Uzbekiston, 2014 yil.
3. Atamuratov S. Avesto-bebaxo merosimiz // Jamiyat va boshqaruv -T.; -2001. -№ 1. -S. 35
4. Abu Rayhan Beruniy. Izbrannyye proizvedeniya, T.II, 1963, 23-6
5. Alpomish" dostoni. <https://e-tarix.uz/component/content/article/43-davlat/83-alpomish.html?ysclid=lv59b8j1ua358869011>
6. A.S.Xanbekova. Psixologicheskie osobennosti tolerantnosti: suщnost ponyatiya, xarakteristika, tipy. Tolerantnoe mirovospriyatie. Molodoy uchyonyy №49 (287) dekabr 2019 g.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. J.I. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –B.192. (-600 b.)
8. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2019. – B.150.( - 920 bet)
9. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. Q.Nazarov va b. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2021. 74-75 betlar.– 816 b.
10. Kustova A.V., Merkulov P.A., Arabadjiyski N.Z. Sotsialnaya tolerantnost: rossiyskiy i zarubejnyy opyt. <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnaya-tolerantnost-rossiyskiy-i-zarubezhnyy-opyt?ysclid=lv7xbau8ge781542984>
11. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: A. Qodiriy nomidagi xalq meros nashriyoti, 1993. -B. 186.
12. Forobiy. «Fozil shanar aholilarining fikrlari» risolasidan. Risolalar.134-135-136-bet..
13. Forobiy. Buyuk kishilarning naqlaridan. Risolalar. 115- bet
14. Mazdakiylar harakati <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mazdakiylar-harakati-uz/>
15. Mazdak <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mazdak-uz/>
16. Gorgiy Platon // Sochineniya v 3-x tt. Pod obщ. red. A. F. Loseva i V. F. Asmusa. Per. s drevnegrech. T. I. M.: Мысл, 1968. S. 341.; Gorgiy Platon. Zakony // Sochineniya v 3-x tt. Pod obщ. red. A. F. Loseva i V. F. Asmusa. Per. s drevnegrech. T. 3. Ch. 2. M.: Мысл, 1968. S. 90.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).